QASHQADARYO VILOYATI
KOSON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180800, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi-104, Telefon 592-16-28, 592-16-16

2024 - yil 24 - yanvar 19-4-60-Q/24 Koson tuman hokimligi

Koson tumani “Do‘stlik” mahallasi xududida yangidan qurilgan 100 qatnovli “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinikasini ish faoliyatini boshlashga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 09 dekabrdagi PF-32 sonli Farmonining 1-ilovasida belgilangan va yangidan qurilgan Koson tumanining “Do‘stlik” maxallasidagi 100 qatnovli “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinikasi ish faoliyatini tashkillashtirish bo‘yicha ijrosini ta’minlash hamda tumanning Do‘stlik, Mesit, Lolazor va Navbaxor maxallasi aholisiga sifatli birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 09 dekabrdagi PF-32 sonli Farmonining 1-ilovasida yangidan qurilishi belgilangan Koson tumanining “Do‘stlik” maxallasidagi 100 qatnovli “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinika binosi qurib bitkazilganligini xisobga olib, “Do‘stlik” mahallasi xududidagi “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinikasi binosi Koson TTB balansiga olinsin va ish faoliyatini boshlashga ruxsat berilsin.

2. Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i (F.Tursunov)ga “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinikasini zarur bo‘lgan jixozlar, malakali tibbiyot xodimlar bilan ta’minlash hamda ish faoliyatini sifatli va belgilangan tartibda yo‘lga qo‘yish yuklatilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (SH.Safarov)ga “Yangi O‘zbekiston” oilaviy poliklinikasiga belgilangan normativ meyorlar bo‘yicha shtat birligi ajratish hamda boshqa mablag‘larni ajratilishini yo‘lga qo‘ysin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**